

INTELLEKTUAL YOSHLAR HAYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Zulqaynarova Parizoda Muhiddin qizi

O'zbekiston Davlat Jalon Tillari universiteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: F.F.Yuldasheva

UzDJTU katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada aqlli texnologiyalarning yosh avlod kundalik hayotida tutgan o'rni, intellektual yoshlар hayotiga zamонавиу texnologiyalarning ijобиу va salbiy ta'sirlari to'g'risida, shu bilan birga, yoshlarning kelajakdagи raqamli texnologiyalar dunyosi haqida fikr va mulohaza yuritilgan. Shuningdek, barcha qarashlarni jamlagan holda aniq va qisqacha xulosa berilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье обсуждаются роль умных технологий в повседневной жизни молодого поколения, положительное и отрицательное влияние современных технологий на жизнь интеллектуальной молодежи, будущее мира цифровых технологий для молодежи. Кроме того, дается четкий и краткий вывод, также другие точки зрения.

ANNOTATION

In this article, the main role of smart technologies in the daily life of the young generation, moreover, positive and negative effects of modern technologies to the intellectual youth, and young people's world of digital technologies in the future are discussed. Also, a clear and brief summary is given by gathering all the views.

Kalit so'zlar: intellektual, yoshlар, internet, media, ijtimoiy tarmoq, raqamli texnologiyalar.

Ключевые слова: интеллектуал, молодежь, интернет, медиа, социальная сеть, цифровые технологии.

Keywords: intellectual, youth, internet, the media, social media, digital technologies.

Bugungi texnologiyalarga boy dunyoyimizda, intellektual yoshlар raqamli texnologiyalardan turli xil usullarda va turlicha maqsadlar uchun foydalanishadi. Avvalo, intellektual va raqamli texnologiyalar kabi hozirgi kunda ko'p qo'llaniladigan zamонавиу so'zlarning to'la ma'nosini tushunib olish zarur. Intellektual so'zi aqliy va ma'naviy salohiyati yuqori, dunyoqarishi keng, fikrlashi turlicha va yangi narsalarni tez qabul qiladigan va amalda foydalana oladigan insonlarga nisbatan qo'llanadi. Raqamli texnalogiyalar esa hozirgi kunda biz keng foydalanadigan so'nggi rusumdagи



planshet, telefon, kompyuterlar kabi elektron qurilmalar, zamonaviy gajetlar va ularni tashkil qiladigan tizim.[1,120-125-betlar] Kundalik hayotda yoshlarning o'zaro internet orqali xabar almashishi, suhbatlashishi, onlayn o'yinlar o'yynashi, turli maqsadlarda web-sahifalardan foydalanishi, bularning barchasi raqamli texnologiyalarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Qo'shma Shtatlarda, voyaga yetgan yoshlarning internetdan foydalanishi(bu holatning yaxshi yoki yomon, sog'liq uchun foydali yoki zararli ta'siri bo'lishi mumkinligiga qaramasdan) 99 foizga teng. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich aholi hisobida 99.8 foizni tashkil etadi.[1] Axborot asri deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. Internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning foydali jihatlari shundan iboratki, yangi media texnologiyalar orqali yoshlar boshqa xalqlarning yangicha g'oyalar bilan chiquvchi o'zlariga o'xshagan tengqurlaridan xabardor bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari, ularning fikr lash doirasi kengayadi, dunyoviy bilimlarga ega bo'lishadi, erkin muloqot qilishni, ijodkorlik va yaratuvchanlikni, cheklanmagan amaliy ko'nikmalarni o'rganishadi. [2]

Har qanday jarayonning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lganidek, raqamli texnologiyalarning salbiy tomonlari ham mavjud. Tan olib aytishimiz kerakki, ba'zi videolar, rasmlar yoki kompyuter o'yinlari yoshlar ongini zaharlaydi va ularning atrofdagilarga bo'lgan munosabatini yomon tomonga o'zgartiradi. Jismoniy tomonidan qaraganda, bular kamharakatlikka, tashqi olamdan uzilib qolishga, ko'rish qobiliyatining pasayishi va normal uyquning buzilishi kabi sog'liq bilan bog'liq jiddiy muammolarga ham sabab bo'ladi. Muhimi shuki, bularning barchasini hisobga olib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy dunyoyimizda raqamli texnologiyalar yoshlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mening fikrimcha, texnologiyalar, albatta, odamlar o'rtasidagi aloqani tubdan o'zgartirdi. Ammo, bu o'zgarishning barcha natijalari ham ijobiy emas. Biroq, salbiy tomonlariga qaraganda, texnologiyalardan foydalanishning yoshlar uchun foydali va samarali jihatlari ko'proq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupov R.H. Raqamli texnologiyalar: „ innovasiyalar va rivojlanish istiqbollari”, Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020-y, 120-125-betlar

Foydalanilgan internet saytlar ro'yxati:

- 1.<http://www.helgilibrary.com/indicators/mobile-phone-penetration-as-of-population/uzbekistan/>
- 2.https://www.researchgate.net/publication/267037595_The_Impact_of_the_Current_Technologies_on_the_Youth's_Personalities_Development